


## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yanvar-dekabr 2019-yil

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 23 525,3 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 126,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 10 594,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa, asosiy kapitalga investitsiyalarning 55,0 % ni yoki 12930,4 mlrd. soʻm oʻzlashtirildi.


**jami investitsiya (mlrd. soʻm)**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning **45,0 %** ni yoki **10 594,9** mlrd. so'mini markazlashgan investitsiyalar tashkil qildi. Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlari mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga **9 603,0** mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **123,7** foizni tashkil qildi. Bu yirik investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lib, "UZBEKISTAN GTL" ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoqilg'ini ajratib olish uchun mo'ljallangan uskunalari keltirilmoqda. Yakkabog' tumanida "Mevadan bolalar uchun sharbat" ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda.


Jami asosiy kapitalga investitsiyalarning **7,8 %** i yoki **820,3** mlrd. so'm Respublika byudjeti mablag'lariga to'g'ri kelmoqda.

**Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da**



- Respublika byudjeti
- O'z.R kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlar
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

**Markazlashmagan  
investitsiyalarning jami hajmdagi  
ulushi, % da**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning **55,0** % i yoki **12 930,4** mlrd. so'mini markazlashmagan investitsiyalar tashkil qildi. Shundan, yuqori ulush to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bunga sabab viloyatimizda xorijiy korxonalar tomonidan ko'proq investitsiyalar jalb qilinganligi bilan bog'liqdir.



Korxonalar mablag'lari hisobidan **3706,0** mlrd. so'm investitsiyalar moliyalashtirilgan. Bu yirik korxonalar tomonidan hisobot davrida Sho'rtan qo'rg'onidagi Tarnasoy, Talimarjon, Namazboy, Nazarquduq, Ernazar quduqlarni burg'ulash obyektlari ishga tushirilganligi bilan izohlanadi. Aholi mablag'lari hisobidan **1340,7** mlrd. so'm yoki **10,4** % ni, tijorat bank kreditlari tomonidan jami investitsiyalarning **6,0** % i yoki **757,8** mlrd. so'm investitsiyalar jalb qilindi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar***(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)*

	mlrd. so`m	o`shish sur`ati % da	yakunga nisbatan % da
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>23525,3</b>	<b>126,1</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>10594,9</b>	<b>112,0</b>	<b>45,0</b>
➤ Byudjet mablag`lari	820,3	103,9	7,7
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari	-	-	-
➤ Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi	-	-	-
➤ O`z.R kafolati ostida xorijiy kreditlar	9603,0	123,7	90,6
➤ Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	171,6	227,9	1,7
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>12930,4</b>	<b>140,4</b>	<b>55,0</b>
➤ Korxonalarining o`z mablag`lari	3706,0	78,7	28,7
➤ Aholi mablag`lari	1340,7	91,8	10,4
➤ To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar	7108,4	392,0	55,0
➤ Tijorat banklari kreditlari	757,8	64,7	5,8
➤ Boshqa qarz mablag`lari	17,5	261,1	0,1


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 55,0 % ni yoki 12930,4 mlrd. so`mni tashkil etdi. O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag`i 3706,0 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,8 % i o`zlashtirildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar hududlar kesimida

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

	Jami		Shu jumladan, qurilish-montaj ishlari	
	mlrd. so`m	o`shish sura`ti, foizda	mlrd. so`m	jamiga nisbatan ulushi, % da
➤ Viloyat bo`yicha:	23525,3	126,1	8056,7	34,3
<b>shaharlar:</b>				
➤ Qarshi	1797,2	68,4	902,1	50,2
➤ Shahrisabz	136,0	73,3	77,5	57,0
<b>tumanlar:</b>				
➤ G`uzor	2127,1	120,3	1333,7	62,7
➤ Dehqonobod	673,5	76,8	507,1	75,3
➤ Qamashi	211,2	132,1	105,6	50,0
➤ Qarshi	772,2	203,2	285,7	37,0
➤ Koson	262,6	55,2	113,5	43,2
➤ Kitob	475,1	135,6	268,7	56,6
➤ Mirishkor	313,0	211,1	208,8	66,7
➤ Muborak	1965,1	87,0	551,8	28,1
➤ Nishon	13511,3	157,6	3199,8	23,7
➤ Kasbi	503,9	464,9	93,2	18,5
➤ Chiroqchi	213,6	96,4	159,2	74,5
➤ Shahrisabz	225,1	122,1	114,8	51,0
➤ Yakkabog`	338,4	103,4	135,2	40,0

### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari



○ 2019 yil yanvar-dekabr




Nishon tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 57,4 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Shahrisabz shahrida esa, bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi ya'ni – 0,6 %.

Hududlar kesimida Kasbi va Mirishkor tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning Kasbi tumanida 2,1 % i, Mirishkor tumanida esa 1,3 % i o'zlashtirildi.



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, % da )




Hududlar kesimida Nishon va G'uzor tumanlarining jami asosiy kapitaldagi ulushi eng yuqori bo'lmoqda. Bunga sabab, yirik xorijiy korxonalar tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ko'proq jalb qilinayotganligi sabablidir.



Kitob, Mirishkor va Kasbi tumanlarida investitsion faollik natijasida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda. Bu tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan "Sement ishlab chiqaradigan zavod" hamda "Paxtani qayta ishlaydigan klasterlar" tashkil etilmoqda.

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


	Jami	Shu jumladan mulkchilik shakllari bo`yicha:	
		davlat	nodavlat
<b>Jami, mlrd. so`m</b>	<b>23525,3</b>	<b>1073,5</b>	<b>22451,8</b>
➤ qurilish-montaj ishlari	8056,7	891,0	7165,7
➤ mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo`jalik jixozlari	12422,6	127,6	12295,0
➤ boshqa xarajatlar	3046,0	54,9	2991,1





## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida elektr energiyasi, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'i yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 9 688,6 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 41,2 % i o`zlashtirilgan.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng katta qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan bo`lib, yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 15 915,5 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 67,7 % ini tashkil etdi.


Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 5669,9 mlrd. so`mni tashkil etdi va viloyatda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 24,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 8,2 %, ya`ni 1939,9 mlrd. so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Joriy davrda 16711,5 mlrd. so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 71,0 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.



Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 5667,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 11043,9 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga


to`g`ri keldi. To`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 5653,4 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lib, jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 24,0 % ni tashkil qildi.



## Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar (mln. so'm)	shu jumladan:	
		xorijiy investitsiya	xorijiy kreditlar
➤ Viloyat bo'yicha:	<b>16 711 472,0</b>	<b>5 667 545,8</b>	<b>11 043 926,2</b>
shaharlar:			
➤ Qarshi	207 851,3	80 956,6	126 894,7
➤ Shahrisabz	9 341,4	1 985,7	7 355,7
tumanlar:			
➤ G'uzor	1 369 411,3	24 512,1	1 344 899,2
➤ Dehqonobod	550 686,8	549 898,2	788,6
➤ Qamashi	20 425,6	11 731,3	8 694,3
➤ Qarshi	481 037,8	467 014,7	14 023,1
➤ Koson	15 855,6	5 170,3	10 685,3
➤ Kitob	181 896,4	176 904,1	4 992,3
➤ Mirishkor	129 337,6	127 350,5	1 987,1
➤ Muborak	27 289,4	25 238,3	2 051,1
➤ Nishon	13 235 127,8	3 798 424,7	9 436 703,1
➤ Kasbi	376 862,8	376 031,3	831,5
➤ Chiroqchi	13 332,9	10 826,5	2 506,4
➤ Shahrisabz	53 769,1	3 717,5	50 051,6
➤ Yakkabog'	39 246,2	7 784,0	31 462,2

## Uy-joylarni foydalanishga topshirish ming kv.m



2019-yil yanvar-dekabr oylarida jami umumiy maydoni 1032,6 ming kv.m, (2018-yilning mos davriga nisbatan 90,9 %) bo`lgan 5911 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirildi. Ulardan umumiy maydoni 592,8 ming kv.m. bo`lgan 3782 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirildi.

Shu bilan birga namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 110,2 ming kv.m. 768 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi. Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida solishtiradigan bo`lsak, eng ko`pi Qarshi shahrida ishga tushirilgan 133,3 ming kv.m. va u viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,9 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun ma'sul: A.Isaev**

*aloqa telefoni:*

**75-221-32-47**